
8-10 SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIKA FANIDAN BILIMLARI SINOVDAN O'TKAZILMOQDA



Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi JICAning O'zbekistondagi vakolatxonasi o'rtasida imzolangan kelishuviga ko'ra, joriy yilning 8-28-aprel kunlari Yaponiyada yagona davlat imtihonlarini amalga oshiruvchi "KEI Advanced" tashkiloti tomonidan 8-10-sinf o'quvchilarining matematika fanidan bilimlarini sinovdan o'tkazish belgilangan edi.

Ushbu loyihaning 4-bosqichida Qo'shtepa tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab tanlab olingan bo'lib, bugun o'quvchilarning matematik savodxonligini aniqlash xalqaro tadqiqoti bo'yicha JICA loyihasi ishchi guruhi a'zolari tomonidan 8-10 sinf o'quvchilarining matematika fanidan bilimlari sinovdan o'tkazilmoqda.

Test natijalari may oyining 15-sanasidan keyin e'lon qilinadi. O'tish ballini qo'lga kiritgan o'quvchilarga maxsus sertifikatlar beriladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-04-13 11:17:49